



**BOLALARDA KSVP VA ASSR KO`RSATKICHLARINI
BAHOLASH**

Yunusova Nafosat Abduxamidovna

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O`zbekiston

Annotatsiya. Audiometriya eshitish pasayishini aniqlash va uning og'irlik darajasini baholashda, turli chastotalarda eshitish chegaralarini aniqlashda "oltin standart" hisoblanadi. Biroq, juda kichik yoshdagi bolalarda ushbu usulni qo'llash amaliy jihatdan mumkin emas yoki ishonchsiz bo'lishi mumkin. Hozirgi vaqtda eshitish bilan bog'liq turli buzilishlarni tashxislash klinik ko'rik, audiometriya va elektrofiziologik tekshiruvlar majmuasiga asoslanadi. Elektrofiziologik diagnostik testlar qo'llaniladigan stimullar turi, chastotalar, javobni tahlil qilish usuli, anatomik daraja va javobni qayta ishlash (avtomatik yoki qo'lda) bo'yicha farqlanadi. Hozirgi kunda mavjud bo'lgan turli elektrofiziologik tekshiruvlarni va eshitish pasayishini imkon qadar erta aniqlash hamda davolash zaruratini inobatga olgan holda, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi turli chastotalarda ASSR, KSVP va audiometriya yordamida aniqlangan eshitish chegaralarini taqqoslashdan iborat bo'ldi. Qo'shimcha maqsadlar — og'ir va juda og'ir darajadagi eshitish pasayishi bo'lgan bolalar guruhida ayni taqqoslashni o'tkazish, kichik yoshdagi bolalarda eshitish pasayishini tashxislashda KSVP va ASSRning sezgirligi hamda spetsifikligini aniqlash, shuningdek diagnostik strategiyani takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat edi.

Kalit so'zlari: KSVP, ASSR, audiometriya, bolalarda eshitishni baholash, stimulatsiya, retrospektiv kuzatuv.



Maqsad

KSVP (ABR)- asosan qisqa-latent javoblarni qayd qiladi va tezkor ob'yektiv baholash uchun mos; ba'zan sog'lom javobni aniqlash yoki nerv darajasidagi patologiyani lokalizatsiya qilishda afzal va ASSR- tonli stimulyatsiyalarga mos javoblarni o'ldaydi va intensivlikni prognozlashda, ayniqsa og'ir/chuqur eshitish yo'qotishlari uchun prognozlash qiymatini beradi. Ko'pincha ikki metodni birga qo'llash yaxshiroq natija beradi. Bu elektrofiziologik testlari kichik yoshdagi bolalarda eshitish pasayishini, erta va aniq aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ayniqsa yangi tug'ilgan chaqaloqlarda skrinigdan keyingi ob'yektiv eshitishni baholash tarkibiga kiradi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi turli chastotalarda ASSR, KSVP va audiometriya yordamida olingan eshitishni taqqoslashdan iborat edi. Qo'shimcha maqsadlar — og'ir va juda og'ir darajadagi eshitish pasayishi bo'lgan bolalar guruhida ushbu ko'rsatkichlarni solishtirish hamda kichik yoshdagi bolalarda eshitish pasayishini tashxislashda ASSR va KSVP testlarining sezgirligi va spetsifikligini aniqlash orqali diagnostik strategiyani takomillashtirishdan iborat bo'ldi.

Materiallar va usullar 2023-yil oktabrdan 2025-yil dekabrgacha retrospektiv kuzatuv tadqiqoti o'tkazildi. ASSR, KSVP va audiometriya yordamida tekshiruvdan o'tgan, yoshi 2 oydan 4 yoshgacha bo'lgan 112 nafar bola (218 quloq) ma'lumotlari tahlil qilindi.

Natijalar

Eshitish chegaralari KSVP va ASSR o'rtasida bir-biriga mos bo'lib, bu holat og'ir va juda og'ir darajadagi kar-soqov guruhida ham kuzatildi. ASSR testining sezgirligi va spetsifikligi mos ravishda 0,922 va 0,892 ni tashkil etdi, KSVP uchun esa bu ko'rsatkichlar 0,907 va 0,730 ga teng bo'ldi.



Xulosa

Aksariyat holatlarda ASSR va KSVP yordamida aniqlangan eshitish chegaralari o‘zaro mos bo‘lib, ayniqsa og‘ir va juda og‘ir darajadagi karsoqov guruhida bu yaqqol namoyon bo‘ldi. ASSR hozirda diagnostikaning standart algoritmiga kiritilgan bo‘lib, KSVPni to‘ldiruvchi qo‘shimcha axborot beradi. ASSR testining aniqligi pediatrik ma’lumotlar bazalaridan olingan davolov chora tadbirlarini qo‘llash orqali amalga oshirilgan. Bolalarda uyqu vaqtining cheklanganligini hisobga olgan holda, 2000–4000 Gs diapazonida KSVP va ASSR o‘rtasidagi yuqori moslik baholashni KSVP bilan boshlash va chastota diapazonini kengaytirish maqsadida ASSRni avval 1000 Gs, so‘ng 500 Gs da davom ettirishni maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘rtacha darajadagi eshitish pasayishini tashxislash hali hamon murakkab bo‘lib qolmoqda, chunki yaxshilanish holatlari va kuzatuvdan chiqib ketish ko‘rsatkichlari yuqori; shu sababli suyak orqali ASSR yoki KSVPni qo‘llash qo‘shimcha o‘tkazuvchi omillarni tezda istisno qilish orqali davolashni samaraliroq tashkil etishga yordam berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Wang X. et al. Post-radiation otitis media with effusion in NPC patients // Int J Radiat Oncol Biol Phys. – 2014. – № 90. – P. 632–639.
2. Ward B.K. et al. Twelve-month outcomes of Eustachian tube procedures for management of patulous Eustachian tube dysfunction // Laryngoscope. – 2019. – Vol. 129(1). – P. 222–228. – doi:10.1002/lary.27443.
3. Ware J. E, Sherbourne C. D. The MOS 36-item short-form health survey (SF-36): I. Conceptual framework and item selection. - Medical Care. - 1992. - № 30(6): P. 473–483.



4. Wassmer E. et al. How do paediatricians communicate with children and parents? // *Acta Paediatr.* – 2004. – Vol. 93(11). – P. 1501–1506. doi:10.1080/08035250410015079. PMID: 15513580.
5. Wiley S. et al. Findings from Multidisciplinary Evaluation of Children with Permanent Hearing Loss // *Int J Pediatr Otorhinolaryngol.* – 2011. – Vol. 75(8). – P. 1040–1044.
6. Wilson BS. et al. Global hearing health care: new findings and perspectives. // *Lancet.* - 2017. - № 390(10111): P. 2503–2515. doi:10.1016/S0140-6736(17)31073-5
7. World Health Organization (WHO). World Report on Hearing. // WHO Publications. – 2021. P. 10-15
<https://www.who.int/publications/i/item/world-report-on-hearing>